



ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ORQALI MUSIQIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH

Komil Mominov –

**Yunus Rajabiy nomidagi O'zbekiston milliy musiqa san'ati instituti
"Maqom cholg'u ijrochiligi" kafedrasida katta o'qituvchisi**

Annotatsiya: Mazkur maqolada uzluksiz ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarning ahamiyati, ularning kasb-hunar kollejlari ta'lim jarayonidagi o'rni va samaradorligi yoritiladi. Interfaol metodlar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilar faoliyatining faollashuvi, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvning shakllanishi tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagogik innovatsiyalarni samarali joriy etishning shart-sharoitlari va o'qituvchilarning bu boradagi roli muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: innovatsiya, texnologiya, uzluksiz ta'lim, interfaol metod, pedagogik faoliyat, axborot texnologiyalari, kasb-hunar kolleji, ijodkorlik, mustaqil fikrlash, o'quvchi faolligi.

Аннотация: В статье рассматривается роль инновационных технологий в системе непрерывного образования, особенно в процессе обучения в профессиональных колледжах. Анализируется влияние интерактивных методов и современных информационно-коммуникационных технологий на активность учащихся, развитие независимого мышления и творческого подхода. Также подчёркивается значение условий эффективного внедрения педагогических инноваций и роль преподавателей в этом процессе.

Ключевые слова: инновация, технология, непрерывное образование, интерактивные методы, педагогическая деятельность, информационные технологии, профессиональный колледж, креативность, самостоятельное мышление, активность учащихся

Annotation: This article explores the role of innovative technologies in the continuous education system, particularly in vocational colleges. It analyzes how interactive methods and modern information and communication technologies enhance student engagement, foster independent thinking, and promote creative approaches. The paper also highlights the conditions necessary for the successful implementation of pedagogical innovations and emphasizes the crucial role of educators.



Keywords: innovation, technology, lifelong learning, interactive methods, pedagogical activity, information technology, vocational college, creativity, independent thinking, student engagement

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini rivojlantirish, ta’lim-tarbiya ishlari sifatini yaxshilash, bo‘lajak mutaxassislarda ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish zarurligi ta’kidlab o‘tilgan. Ta’lim, o‘qituvchi va o‘quvchilarning aqliy mehnati, faollik va ijodiy fikrlashidan iborat bo‘lgan ko‘pqirrali va murakkab jarayon hisoblanadi.

Dars samaradorligini oshirish ta’lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda yo‘lga qo‘yish va yangi pedagogik texnologiyalarni amalda qo‘llash bilan uzviy bog‘liq. Kasb-hunar kollejlarda innovatsion faoliyatni tashkil etishdan asosiy maqsad o‘qituvchilar va o‘quvchilar jamoasi hamkorligi izchilligini ta’minlash hamda uni aniq maqsadga yo‘naltirilgan holda yo‘lga qo‘yishdan iboratdir. Bu ishda ham pedagogik, ham boshqaruv masalalari hal etiladi. Shuni qayd etish lozimki, pedagogik innovatsiyalar ishtirokchilari innovatsiyalarning yuzaga kelish, namoyon bo‘lish va boshqarish jarayoni qonuniyatlari haqida metodologik, psixologik, pedagogik, texnologik bilimlarni puxta egallashi lozim. Aks holda pedagogik innovatsiyalar samarali natija bermaydi.

Bizning fikrimizcha ta’lim tizimida innovatsion jarayonlarni boshqarish samaradorligi hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablaridan kelib chiqqan holda kasb-hunar kollejlarda mutaxassislar tayyorlash sifati pedagogik innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etish shart-sharoitlariga, ta’limning an’anaviy usullari bilan maqsadga muvofiq ravishda uzviy qo‘llashga bog‘liq. Ayrim hollarda samarali bo‘lgan an’anaviy usullardan voz kechish holatlari sodir bo‘lmoqda. Bu innovatsiyalarni tajribada sinalgan va ijobiy natija berib kelayotgan o‘qitishga qarshi qo‘yishdek sezilmoqda. Shuning uchun ham an’anaviy ta’lim tizimidagi ijobiy tajribalar innovatsiyalarga uyg‘unlashtirilsa ma’qul bo‘lar edi.

“Innovatsion texnologiya” tushunchasi ta’lim samaradorligini oshiruvchi omillardan foydalanish, turli pedagogik jarayonlarni loyihalash va amalda qo‘llash orqali bilim egallashni takomillashtirish usullarini qamrab oladi. Zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi musiqa ta’limi sohasida ham yangicha yondashuvlarni shakllantirishga zamin yaratdi. Raqamli platformalar, multimediyada dasturlar, virtual simulyatorlar va interaktiv o‘quv ilovalari yordamida



musiqa nazariyasi, cholg'ʻu ijrosi va kompozitsiya fanlarini o'rgatish samaradorligi oshmoqda. Ayniqsa, pandemiya davrida onlayn darslar va masofaviy o'qitish vositalarining qo'llanilishi ushbu texnologiyalarni musiqa ta'limining ajralmas qismiga aylantirdi.

“Kasb-hunar ta'limida innovatsion texnologiyalar” deyilganda turli pedagogik yangiliklarni yaratish, qabul qilish, baholash, o'zlashtirish va amalda tatbiq etish jarayonini boshqarish tushuniladi. Kasb-hunar kollejlarda yaratilgan sharoit va imkoniyatlar eng so'nggi innovatsiya namunalarini joriy etish uchun moslashtirilgani o'qituvchi va o'quvchilarning ijodiy faolligini kuchaytirish uchun xizmat qilmoqda.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishning sabablaridan biri shu vaqtgacha ta'lim maqsadlari o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni o'zlashtirib olishga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi.

Interfaol usullar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir o'quvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanilganda bilim olish o'quvchi uchun qiziqarli mashg'ulotga aylanadi. Interfaol usullar qo'llanilganda o'quvchilar o'qituvchilar yordam va hamkorligida mustaqil ishlash ko'nikma va malakalariga ega bo'ladilar. O'quvchilar yangi bilimlarni ilmiy izlanish, tadqiqotchilik, tajriba-sinovlar o'tkazish asosida o'zlashtiradilar. Ilm orqali bilim olish tamoyiliga amal qilinadi.

Ta'lim jarayoni ishtirokchilari kichik guruhlariga bo'lingan holda ishlashadi. O'quv topshiriqlari alohida bir o'quvchiga emas, balki kichik guruhning barcha a'zolariga beriladi. Mikroguruhlarining har bir a'zosi topshiriqni bajarishda o'z hissasini qo'shishga harakat qiladi. Bu holat o'quvchilarda jamoa tuyg'usini shakllantiradi va ularning tashabbuskorligini oshiradi. Ta'lim jarayonini tashkil etishning asosiy shakli darsdir.

Interfaol texnologiyalar yordamida o'quvchilar individual qobiliyat va qiziqishlariga mos tarzda o'rganish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda. Masalan, “smart” dasturlar va sun'iy intellekt asosidagi platformalar (masalan, Yousician, Flowkey) yordamida o'quvchi o'z tezligida mashq qilib, darhol tahliliy fikr-



mulohaza olishi mumkin. Bunday yondashuvlar an'anaviy ustoz-shogird uslubini to'ldirib, musiqiy bilim va mahoratni interaktiv shaklda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Hozirgi paytda darsning xilma-xil noan'anaviy shakllari joriy etilmoqda. Bunday darslar o'quvchining ijodiy qobiliyatini o'stirish, aqliy salohiyatini kuchaytirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va har bir yangilikni tez va to'la qabul qila olish ko'nikma va malakalarini tarkib toptiradi. Dars jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarda ilmiy izlanishga qiziqishni uyg'otadi, ijodkorlik va bunyodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada egallangan bilim, ko'nikma va malakalar amaliy faoliyatda tatbiq etiladi, o'zlashtirish sifati oshadi. Buning uchun o'qituvchi mahoratli bo'lishi va mavzularning mazmuniga qarab darsni to'g'ri rejalashtirishi, mashg'ulot davomida barcha o'quvchilarni faol va ongli ishlashlariga erishmog'i lozim.

Shunday qilib, innovatsion faoliyat ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi va o'qituvchini hamkorga aylantiradi. Darsni qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Innovatsiyalarning samaradorligini aniqlashda o'quvchilarning fan asoslarini o'zlashtirish natijalariga qarab fikr yuritish zarur. Hozirgi paytda o'quvchilarning bilim egallashlarida axborot kommunikatsiya vositalaridan keng ko'lamda foydalanilmoqda. Ayniqsa, kompyuterda ishlash, turli tarmoqlardan kerakli ma'lumotlarni izlab topish va o'zlashtirib olish o'quvchilarning qiziqarli mashg'ulotlariga aylanib bormoqda. Faqat bunda kompyuter savodxonligi mukammal bo'lishi talab etiladi. Bu ham innovatsion faoliyat bo'lib, o'quvchilarda maxsus bilim, ko'nikma va malakalarning tarkib topishini taqozo etadi.

Pedagogik kasb-hunar kollejlarning barcha yo'nalishlarida informatika va axborot texnologiyalari dars sifatida o'qitiladi. Bu darslar o'quvchilarning eng qiziqarli mashg'ulotlariga aylanib ulgurgan. O'quvchilarga kompyuterda ishlash ko'nikma va malakalarini o'rgatish bilan birga shu yo'nalishdagi madaniyatni ham tarkib toptirilsa ma'qul bo'lar edi. Ayrim o'quvchilar bilim olishdan ko'ra turli o'yinlarni o'ynashga, jangorilikka, "ommaviy madaniyat" namunalaridan bahramand bo'lishga qiziqadilar. Kompyuter tarmog'idagi innovatsiyalarni ta'lim-tarbiya olish uchun yo'naltirish kasb-hunar kollejlarda pedagoglar jamoasining diqqat markazida turishi zarur.

Pedagogik innovatsiyalar ma'lum miqdordagi vazifalarni hal etish uchun xizmat qilishga yo'naltirilgan bo'ladi. Agar o'quvchida mustahkam bilim bilan birga, uni amaliy faoliyatda qo'llashning ko'nikma va malakalari tarkib topsa, tajribada sinab ko'rilganda samaradorlikka erishsa, mavjud holatlar ijobiy tomonga



o'zgartirilsa, yangi g'oyalar ustida ish olib borilsa, har qanday muammoning yechimini atroflicha tasavvur qilinsa, global masshtabda fikr yuritilsa innovatsiya kafolatlangan natijani bergan bo'ladi. Xuddi shunday pedagogik innovatsiyalar har tomonlama kamol topgan, barkamol avlodni tarbiyalab berish vazifasini hal etadi.

Zamonaviy texnologiyalar nafaqat texnik ko'nikmalarni o'rgatish, balki o'quvchilarda musiqiy did va estetikani rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Virtual musiqiy laboratoriyalar, audiovizual materiallar, tarixiy cholg'u tovushlari kutubxonalar orqali o'quvchilar turli madaniyatlar musiqasini solishtirish, chuqur tahlil qilish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniga ega bo'ladilar. Bu esa musiqa ta'limining mazmun va shakl jihatdan boyishiga olib kelmoqda.

Kasb-hunar kollejlarda olib borgan kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, o'quvchi-yoshlar bir xillikni, passiv tinglovchi bo'lishni, itoatkor bajaruvchilikni, bironing fikriga qaram bo'lishni (hatto u foydali bo'lsa ham) yoqtirmaydi. Ta'lim-tarbiya jarayonidagi xilma-xillik, mustaqillik, onglilik, faollik, erkin va ijodiy fikrlash, o'zining "men"ini namoyon etish, ilm-fandagi yangiliklardan xabardor bo'lish va yangilik yaratishga intilish o'quvchilarning turmush tarziga aylanib bormoqda. Bu muammolarni hal qilishning eng samarali usuli innovatsiya texnologiyalari ekanligi ma'lum bo'ldi. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarini innovatsion texnologiyalar asosida o'qitish bilan cheklanib qolmasdan, kelajakda amaliy faoliyatlarida o'zlari innovatsiya texnologiyalarini muvaffaqiyatli qo'llashga o'rgatishni asosiy vazifa deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 05.01.1998 yildagi 5-son
2. Xakimova Sh. Uzliksiz ta'limning bugungi kundagi ahamiyati. <https://inlibrary.uz/index.php/zdpp/article/download/62376/62914/79159>
3. Muminova Guzal Igamovna. (2024). TEACHING THE PERFORMANCE OF MAQAM INSTRUMENTAL MUSIC: REFLECTIONS AND SUGGESTIONS. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 6(11), 220–223. <https://doi.org/10.37547/tajir/Volume06Issue11-14>
4. Muminova, G. (2024). YANGI O'ZBEKISTONNING SOG'LOM AVLODI – SOG'LOM OILADA SHAKLLANADI. Talqin Va Tadqiqotlar. <https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/2643>



5. Muminova G. HONORARY WOMEN IN UZBEK ART //Science and Innovation. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 244-247.

6. Муминова Г. ВОПРОС ОБ ОЦИФРОВКЕ ХОРЕЗМСКИХ МАКОМОВ ЗАПЕЧАТАННЫХ В ПЕРФОКАРТАХ //Journal of science-innovative research in Uzbekistan. – 2024. – Т. 2. – №. 12. – С. 532-535.
<https://inlibrary.uz/index.php/journal-science-innovative/article/view/62710>

7. Муминова Гузал Игамовна О ВКЛАДЕ ФАКИРИ В БУДУЩЕЕ МУЗЫКАЛЬНОГО ИСКУССТВА КАК ЛИЧНОСТИ И КАК ПОЭТА // Проблемы Науки. 2021. №4 (161). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-uklade-fakiri-v-budushee-muzykalnogo-iskusstva-kak-lichnosti-i-kak-poeta>